(8). Yakubova S.H. (2024). Pretsedent birlik va pretsedent nom, ularning o‘zbek lingvomadaniy jamiyatida qo‘llanilishi. Euroasian jounal of technology and innovaton. 81 p.

(9). Zemskaya E.A. Citation and types of its transformation in the headlines of modern newspapers. Poetics. Stylistics. Language and culture. M., 1996, 338 p.

(10). Абдуллаев Х.Б. К вопросу о значении понятий «денотация» и «коннотация». ДжГПИ, 2023, 3 с.

(11). Земская Е.А. Язык как деятельность. Морфема. Слово. Речь. М., “Языки славянской культуры”, 2004, 121 с.

(12). Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. М., “Наука”, 1987, 216 с.

(13). Красных В.В., Гудков Д.Б., Захаренко И.В., Багаева Д.В. Когнитивная база и прецедентные феномены в системе других единиц и в коммуникации. “Вестник МГУ”, сер. Филология. 1997, № 3, 62 с.

(14). Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. М., “Litres”, 2017, 21 с.

(15). Наволоцкая О.В. Прецедентность в заголовках медиа: сопоставительный аспект. “Ученые записки Новгородского государственного университета”, 2022, № 6 (45), 685 с.

(16). Ревзина О.Г. О понятии коннотации. Языковая система и её развитие во времени и пространстве. Сборник научных статей, М., 2001, с. 436–446.

(17). Рождественский Ю.В. Введение в общую филологию. М., “Академия”, 2004, 343 с.

(18). Серпикова М.Б. Язык СМИ как объект лингвистического исследования. “Гуманитарные науки: научное сообщество студентов XXI столетия”, 2017, № 8 (56), с. 45–49.

(19). Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. М., “Academia”, 2000, 128 с.

(20). Фоменко Е.С. Американские культурные символы – прецедентные феномены в дискурсе современных СМИ. “Филологические науки”, Вопросы теории и практики. 2015, № 3-1 (45), с. 204–208.

Norova Farzona G‘ayrat qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi;
E-mail: farzona.norova@yandex.ru)

XITOY TILIDAGI AJRATILADIGAN SO‘ZLAR (离合词) MOHIYATINING NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xitoy tilidagi “ajratiladigan so‘zlar” (离合词líhécí) ontologik jihatdan o‘rganilib, ularning mohiyatini tasniflovchi nazariy qarashlar ko‘rib chiqildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, “ajratiladigan so‘zlar” mohiyati borasida xitoy tilshunosligi doiralarida to‘rtta nazariy qarash borligi aniqlandi va ko‘rib chiqildi.*

Kalit so‘zlar*: ajratiladigan so‘z, xitoy tili, nazariy tahlil.*

Норова Фарзона Гайрат кизи (Ташкентский государственный университет востоковедения, преподаватель)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРИРОДЫ РАЗДЕЛЯЕМЫХ СЛОВ (离合词) В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье исследуется онтология «разделяемых слов» (离合词líhécí) в китайском языке, а также вкратце рассматриваются теоретические взгляды, классифицирующие их сущность. Согласно результатам анализа, было установлено, что в кругах китайского языкознания существуют четыре теоретические точки зрения относительно сущности «разделяемых слов».*

Ключевые слова*: разделяемые слова, китайский язык, теоретический анализ.*

Norova Farzona Gairat kizi (Tashkent State University of Oriental Studies)

THEORETICAL ANALYSIS OF THE ESSENCE OF SEPARABLE WORDS (离合词) IN CHINESE

Annotation*. This article examines the ontological nature of “separable words” (离合词 líhécí) in Chinese and reviews and analyzes the theoretical perspectives that classify their essence. According to the results of the analysis, it was determined and examined that there are four theoretical viewpoints in Chinese linguistics regarding the nature of “separable words.”*

Key words*: separable words, Chinese, theoretical analysis.*

Kirish. Ajratiladigan so‘zlar (离合词líhécí) xitoy tili leksikasining muhim qismi bo‘lib, xitoy tilini o‘rganuvchilar o‘rganishi zarur bo‘lgan lingvistik birlik hisoblanadi. Ularning mohiyati noodatiy bo‘lib,

murakkab va xilma-xil shakllarga ega. Ajratiladigan so‘zlar qo‘shma va kengaytirilgan shakllarga ega bo‘lgan maxsus xitoy tili leksikasi bo‘lib, ikki morfemadan iborat. Ikki morfema birgalikda ishlatilganda, ajratiladigan so‘z mustaqil so‘zning xususiyatlarini saqlab qolib, to‘liq semantik ma’noga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, ikki morfema ajratilgan holda, ya’ni ularning orasiga boshqa komponentlar, jumladan, yordamchi so‘zlar kiritilishi mumkin. Bunday qo‘llanilganda ajratilgan so‘zlar so‘z birikmasi xususiyatlarini o‘zida aks etadi. Shuning uchun ajratiladigan so‘zlar mohiyati xitoy tilshunoslari o‘rtasida munozaraga sabab bo‘luvchi mavzulardan bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Tegishli adabiyotlarni ko‘rib chiqish orqali biz ajratiladigan so‘zlar bo‘yicha tadqiqotlarni xronologik nuqtayi nazardan, ikkita asosiy bosqichga bo‘linishini aniqladik:

Birinchi bosqich. 1940-yillarda xitoy olimlari ajratiladigan so‘zlarning mohiyatini o‘rganishni boshlaganlar. 1940-yilda janob Chen Vandao birinchi marta ajratiladigan so‘zlar tushunchasini o‘zining “Til harakatining sharhi va istiqboli” asarida tilga oldi. 1957-yilda janob Lu Djivey [8] ajratiladigan so‘zlarning birinchi chuqur tadqiqotini o‘tkazib, “ajratiladigan so‘zlar” nomini taklif qildi va to‘rtta turini bayon qildi. Keyinchalik, olimlar ajratiladigan so‘zlarning tabiati, ta’rifi, turlari va shakllarini turli nuqtai nazardan o‘rganishni boshladilar.

Ikkinchi bosqich. 1980-yillarda Xitoy islohotlar va ochiqlik siyosatidan so‘ng, xitoy tilini chet tili sifatida o‘qitishni faol ravishda targ‘ib qildi. O‘sha davrda olimlar ajratiladigan so‘zlarning tuzilishi va qo‘llanilishi bo‘yicha chuqurroq tadqiqotlar olib borishdi. Xitoy tilini chet tili sifatida o‘qitishda ajratiladigan so‘zlarning o‘ziga xos tabiati va shakllari chet ellik o‘quvchilar uchun o‘rganishda qiyinchiliklarga olib keladi. Shuning uchun olimlar xitoy tilini chet tili sifatida o‘qitish nuqtai nazaridan ajratiladigan so‘zlar bo‘yicha batafsil tadqiqotlar olib borishdi. Tadqiqot mavzulari, asosan, chet ellik o‘quvchilar tomonidan ajratiladigan so‘zlardan foydalanishda qilingan xatolar, xitoy tilini chet tili sifatida o‘qitishda ajratiladigan so‘zlarning o‘rgatilishi va darsliklarni tuzishda ajratiladigan so‘zlarga ahamiyat berish kabi mavzularni o‘z ichiga olgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda biz ajratiladigan so‘zlarning o‘ziga xos mohiyati, ya’ni ularning mustaqil so‘z yoki so‘z birikmasi borasida bajarilgan tadqiqotlarni ko‘rib chiqib, ularni o‘zaro qiyoslash orqali ajratiladigan so‘zlarning mohiyati haiqdagi nazariy qarashlarni tahlil qildik.

Natijalar va ularning tahlili. Adabiyotlarni ko‘rib chiqish va tahlil qilish orqali biz xitoy olimlari ajratiladigan so‘zlarning xususiyatlariga oid quyidagi to‘rtta nuqtai nazarga ega ekanligini aniqladik:

Birinchi qarash: ajratiladigan so‘zlar mustaqil so‘z sifatida tasniflanishi kerak. Bu qarashni qo‘llab-quvvatlovchi olimlar fikricha, ajratiladigan so‘zlardagi ikki morfema ajratilib qo‘llanilishi mumkin bo‘lsa ham, semantik ma’nosi to‘liq bo‘lgani sabab ularni maxsus fe’l sifatida aniqlash mumkin. Djao Yuanren [4] ajratiladigan so‘zlarni ajratilishi mumkin bo‘lgan qo‘shma fe’l sifatida tasniflaydi. Djan Jing [1] ham shu tasniflashni qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu qarashni qo‘llab-quvvatlovchi boshqa olimlar qatoriga Syan Syaotsin [11] va Djao Jinmin [3] kiradi.

Ikkinchi qarash: ajratiladigan so‘zlar so‘z birikmasi sifatida tasniflanishi kerak. Bu qarash tarafdorlari nazarida, ajratiladigan so‘zlarning qo‘shib yozilgan shakli mustaqil so‘zning xususiyatlarini aks ettirishiga qaramay, ajratiladigan so‘zning ikki morfemasi orasiga fe’l to‘ldiruvchisi (补语), yordamchi so‘zlar va boshqalar kiritilishi mumkinligi mustaqil so‘zlardan farq qiladi va so‘z birikmalarning xususiyatlarini kuchliroq aks ettiradi. Ushbu qarashga ega olimlar qatoriga Djon Tsin [5], Van Bin [14] va boshqalar kiradi. Ularning fikricha, ajratiladigan so‘zdagi ikki morfemaning ajratib yozilishi mustaqil so‘z va so‘z birikmasini farqlash mezoni hisoblanadi. Ajratiladigan so‘zlarning birgalikda va ajratib qo‘llanilish xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli, ularni fe’l emas, balki fe’l va ot birkmasidan iborat so‘z birikma sifatida tasniflash kerak. Bundan tashqari, Lyuy Shusyan [9] o‘z ishida ta’kidlaganidek, agar lingvistik birlik morfemalari orasiga boshqa komponentlar qo‘shilsa va uning gap ichidagi o‘rnini o‘zgartirsa, bunday lingvistik birliklar so‘z birikma xususiyatlarini namoyon qiladi va so‘z birikma sifatida tasniflanishi kerak.

Uchinchi qarash: ajratiladigan so‘zlar birgalikda qo‘llanilganda fe’l sifatida, ajratib qo‘llanilganda esa so‘z birikma sifatida ishlatilishi kerak, bu qarash “ikki tomonlama identifikatsiya” nazariyasi sifatida ham tanilgan. Ajratiladigan so‘zlar semantik yaxlitlikka ega bo‘lgani sabab mustaqil so‘z talablariga javob beradi, ammo ularni ajratish mumkinligi tuzilish jihatidan ko‘proq so‘z birikmasi xususiyatlarini namoyish etadi. Shuning uchun ba’zi olimlar bu lingvistik hodisaning “ikki tomonlama identifikatsiya”ni aksi deb hisoblashadi. Lu Djivey [8] birinchi bo‘lib bu qarashni ilgari surgan. Uning ta’kidlashicha, “fe’l-to‘ldiruvchi” tuzilishidagi qo‘shma fe’l ajratib qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan holatda, birgalikda qo‘llanilgan shakli bir mustaqil so‘z, ikki morfema orasiga boshqa gap qismlari qo‘shilib qo‘llanilgan shakli esa so‘z birikmasini

aks ettiradi. Dju Desi [7] ajratiladigan so‘lar birgalikda ishlatilganda mustaqil so‘z sifatida tasniflanishi mumkinligini, ularning ajratilgan shakli so‘z birikmasi tabiatiga ko‘proq mos kelishini ta’kidlagan. Djan Shoukan [2], Syin Fuyi [13] kabi olimlar ham ajratilgan so‘zlarning ajratilganda so‘z birikmasi, qo‘shma holda mustaqil so‘z kabi tasniflanishini targ‘ib qilganlar. Bu qarash ajratiladigan so‘zlarning ikki shaklini, ya’ni birgalikda va ajratilgan holda qo‘llaniladigan shaklini aniq aks ettiradi.

To‘rtinchi qarash: ajratiladigan so‘zlar fe’l va so‘z birikma orasidagi til birligi, ya’ni “oraliq holat” nazariyasi ham mavjud. Ushbu qarashga ega olimlar ajratiladigan so‘zlar mustaqil so‘z va so‘z birikmasi xususiyatlariga ega bo‘lgan oraliq holatdagi birlik deb hisoblashadi. Ularning fikricha, ajratiladigan so‘zlarni mustaqil so‘z yoki so‘z birikmasining biriga tehishli deb emas, balki ikkisining o‘rtasida joylashgan lingvistik hodisa sifatida ko‘rish kerak. Ushbu qarashni targ‘ib qiluvchi olimlar orasida Djou Zhishang [6], Ren Fengqin [10] va Syao Yan [12] bor.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ajratiladigan so‘zlarni ontologik o‘rganish nuqtai nazaridan, mustaqil so‘z, ya’ni fe’l yoki so‘z birikmasi sifatida tasniflanishi keng tarqalgan ikki qarashdir. Ajratiladigan so‘zlar xitoy tili darsliklarida “ajratiladigan so‘z” deb berilib, odatda aynan fe’l yoki so‘z birikmasi deb belgilanmaydi, ularning ajratilgan shakliga yaxshi tushuntirish berilmagani bois, ko‘p o‘quvchilar mazkur birliklarni qo‘llashda xatoliklarga yo‘l qo‘yishadi. Ajratiladigan so‘zlar xitoy tilida keng qo‘llanilgani sabab, xitoy tilini chet tili sifatida o‘qitishda katta ahamiyat kasb etadi. Ularning mohiyatini to‘g‘ri belgilash, fe’l yoki so‘z birikmasi deb o‘rgatishga aniqlik kiritish o‘qituvchilarning o‘qitish jarayoni hamda o‘quvchilarning mazkur birlikni puxta egallashi uchun muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). 张静.汉语语法问题[M].北京：中国社会科学出版社,1987.
(2). 张寿康.关于汉语构词法[M].人民出版社,1956.
(3). 赵金铭.能扩展的“动+名”格式的讨论[J].语言教学与研究, 1984(02):4-23.
(4). 赵元任.汉语口语语法[M].北京：商务印书馆,1979
(5). 钟锳.谈怎样分别词和语[J].中国语文,1954(12).
(6). 周上之.离合词是不是词？[J].暨南大学华文学院学报,2001(04):41-46.
(7). 朱德熙.语法讲义[M].北京:商务印书馆,2003.
(8). 陆志韦.汉语的构词法[M].北京：科学出版社,1957.
(9). 吕叔湘.汉语语法分析问题[M].北京:商务印书馆,1979.
(10). 任凤琴.论离合词与词组的区分[J].语文学刊,2005(4):114-117.
(11). 向小清.对离合词性质界定的看法[J].齐齐哈尔师范高等专科学校学报. 2008(03):40-41.
(12). 肖燕.基于问卷调查的日语事实性条件句习得研究[J]. 语言与文化研究,2013(01):69-74.
(13). 刑福义.汉语语法学[M].长春：东北师范出版社，1996.
(14). 王彬.由扩展法看“离合词”[J].铜仁师范高等专科学校学报(综合版),2006(05):21-34.

Sa’dullayeva Mohira Sobirovna (f.f.f.d. (PhD), Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi, DSc mustaqil izlanuvchisi; E-mail: mohirasobirovna2020@gmail.com; ORCID 0009-0004-5071-7066)

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA DIALEKTAL BIRLIKLARNI LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida dialektal birliklarni lingvokulturologik tadqiq etishning nazariy asoslari tizimli yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi dialekt birliklarining madaniy ma’nolarini aniqlash, ularni milliy konseptlar, qadriyatlar va kommunikativ stereotiplar bilan bog‘liq holda talqin qilishga xizmat qiladigan integrativ nazariy modelni asoslashdan iborat. Metodologiya sifatida lingvokulturologik tahlil, semantik-prototipik yondashuv, konseptual tahlil, etnolingvistik izoh, diskursiv-pragmatik kuzatuv hamda dialektografik ma’lumotlarni korpuslash tamoyillari uyg‘unlashtirildi. Ilmiy yangilik dialektal birliklarni faqat hududiy farqlanish natijasi sifatida emas, balki madaniy xotira va ijtimoiy tajriba kodlari sifatida talqin etishning mezonlari ishlab chiqilganida, shuningdek, dialektizmning lingvokulturologik tavsifi uchun minimal parametrlar to‘plami taklif etilganidadir. Natijalar dialekt birliklarini madaniy indekslar sifatida qayd etish o‘zbek leksikografiyasi va ta’lim amaliyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *dialektal birlik, lingvokulturologiya, konsept, madaniy semantika, etnolingvistika, dialektografiya, pragmatika.*